

QORAQALPOG'ISTONDA KOLLEKTIVLASHTIRISH SIYOSATINING AMALGA OSHIRILISHI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI (1927–1932-YILLAR)

Qidirbayeva Mavluda Kalbayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpog davlat universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: mavluda.kidirbaeva@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-8893-8021>

Annotatsiya.

Maqolada Qoraqalpog'istonda 1927–1932-yillarda amalga oshirilgan sovet kollektivlashtirish siyosati arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Yer-suv islohotlari, dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish, quloq xo'jaliklarini tugatish siyosati hamda mazkur jarayonning qishloq aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, kollektivlashtirishning Qoraqalpog'istonga xos hududiy xususiyatlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ilmiy jihatdan baholangan.

Kalit so'zlar: kollektivlashtirish, Qoraqalpog'iston, yer-suv islohoti, arxiv hujjatlari, quloqlashtirish, kolxozlar, qishloq xo'jaligi, sovet agrar siyosati.

ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ ПОЛИТИКИ КОЛЛЕКТИВИЗАЦИИ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ И ЕЁ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ (1927–1932 ГОДЫ)

Кидирбаева Мавлуда Калбаевна

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, базовый докторант.

Аннотация.

В статье на основе архивных документов, статистических данных и научных источников анализируется советская политика коллективизации, проводившаяся в Каракалпакстане в 1927–1932 годах. Рассматриваются земельно-водная реформа, коллективизация крестьянских хозяйств, политика ликвидации кулацких хозяйств, а также влияние этих процессов на социально-экономическую жизнь сельского населения. Особое внимание уделяется региональным особенностям коллективизации в Каракалпакстане и научной оценке её социально-экономических последствий.

Ключевые слова: коллективизация, Каракалпакстан, земельно-водная реформа, архивные документы, раскулачивание, колхозы, сельское хозяйство, советская аграрная политика.

THE IMPLEMENTATION OF THE COLLECTIVIZATION POLICY IN KARAKALPAKSTAN AND ITS SOCIO-ECONOMIC CONSEQUENCES (1927–1932)

Qidirbayeva Mavluda Kalbayevna

Karakalpak State University named after Berdakh, Basic Doctoral Student.

Abstract.

This article analyzes the Soviet collectivization policy implemented in Karakalpakstan between 1927 and 1932 based on archival documents, statistical data, and scholarly sources. It examines land and water reforms, the collectivization of peasant farms, the policy of eliminating kulak households, and the impact of these processes on the socio-economic life of the rural population. The study also evaluates the regional characteristics of collectivization in Karakalpakstan and provides a scholarly assessment of its socio-economic consequences.

Keywords: collectivization, Karakalpakstan, land and water reform, archival documents, dekulakization, collective farms, agriculture, Soviet agrarian policy.

Kirish. Kollektivlashtirish siyosati V.I. Lenin boshchiligidagi sotsializm qurish rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Taniqli tarixchi olimi Rahima Aminova kollektivlashtirishga baho berar ekan: **“Kollektivlashtirish — bu ishlab chiqarishda davlat monopoliyasining o'rnatilishidir”**, deydi. Partiyaviy-mafkuraviy siyosat hukmronligi tufayli yuzaga kelgan kollektivlashtirish nazariyasi va amaliyoti bugungi kunga kelib o'zining samarasizligini namoyon etdi. Inson mehnatiga haq to'lashning o'zaro tenglik tamoyiliga asoslanganligi sababli bu siyosat kutilgan natijalarni bermadi. Tabiiyki, moddiy manfaatdorlik mavjud bo'lmagan joyda tashabbuskorlik ham susayadi. Tashabbus va izlanish bo'lmagan

sharoitda esa ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Bundan tashqari, o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning o'zi kollektivlashtirish muammosini kun tartibiga olib chiqmagan edi.

1927-yilda Qoraqalpog' avtonom viloyatida yer tuzish ishlarini tartibga solish maqsadida aholining yerdan foydalanish me'yorlarini belgilash bo'yicha maxsus ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, yerdan foydalanish me'yorlari mahalliy tabiiy-iqtisodiy sharoitlar, tuproq xususiyatlari, statistik ma'lumotlar hamda xo'jaliklarning iqtisodiy ahvolini hisobga olgan holda belgilanishi lozim edi. Shu maqsadda hududlar rayonlarga ajratilib, har bir rayon bo'yicha o'rtacha tipik dehqon xo'jaliklari o'rganilgan.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, yer tuzish jarayonida yer maydonlari, chorva soni, ekin ekiladigan yerlar hamda aholining xo'jalik yuritish imkoniyatlari tahlil qilinib, shu asosda yerdan foydalanish me'yorlari belgilangan. Mazkur tadbirlar keyinchalik qishloq xo'jaligini qayta tashkil etish va kollektivlashtirish siyosatini amalga oshirish uchun zarur iqtisodiy hamda tashkiliy zamin yaratgan.

Yer tuzish ishlari davomida har 25 ta xo'jalikdan kamida bitta o'rtacha tipik xo'jalik tanlab olinib, uning iqtisodiy holati, yer bilan ta'minlanganlik darajasi hamda ishlab chiqarish imkoniyatlari o'rganilgan. Olingan ma'lumotlar asosida aholi uchun yerdan foydalanish me'yorlari hisoblab chiqilgan va ular keyingi agrar islohotlarni amalga oshirishda muhim manba vazifasini bajargan.

Metodlar

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimli tahlil tamoyillaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Qoraqalpog'iston va O'zbekistonda kollektivlashtirish siyosatiga oid arxiv hujjatlari, partiya va davlat organlarining qarorlari, statistik ma'lumotlar hamda mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy tahlil usuli orqali kollektivlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va oqibatlari o'rganildi. Tadqiqotda A. Jumashev, S. Nurjanov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi materiallaridan manba sifatida foydalanildi.

Natijalar

Sovet hokimiyatining qishloq xo'jaligini jamoalashtirishga qaratilgan siyosati hamda uni XX asrning 20–30-yillarida amalga oshirish yo'nalishlari hukumat buyruqlari va zo'ravonlik siyosatining yaqqol ifodasi sifatida qishloqlarda olib borilgan kollektivlashtirish jarayonida namoyon bo'ldi. Asrlar davomida yakka xo'jalik yuritib kelgan, xususiy mulkchilik tuyg'usi kuchli shakllangan va mulk daxlsizligini muqaddas deb bilgan millionlab dehqon oilalarini ularning xohish-irodasini inobatga olmagan holda majburiy ravishda yirik jamoa xo'jaliklariga birlashtirish murakkab va og'ir jarayon edi. Shunga qaramay, sovet hokimiyati va hukmron partiya ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy qonuniyatlari zid ravishda ushbu jarayonni qisqa muddat ichida zo'rlik va majburlash yo'li bilan amalga oshirishni maqsad qilib qo'ydi. VKP(b)ning XV qurultoyi (1927-yil dekabr) tomonidan belgilangan qishloqlarda ommaviy jamoalashtirish siyosati bunga asos bo'ldi.

Butun SSSR hududida bo'lgani kabi, O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda ham ushbu siyosat faol ravishda amalga oshirildi. Hukumat tomonidan qabul qilingan buyruq, farmon va ko'rsatmalar hududning iqtisodiy imkoniyatlari, mahalliy aholining munosabati, milliy xususiyatlari hamda turmush tarzidan qat'i nazar, so'zsiz bajarilishi talab qilindi.

Ommaviy jamoalashtirish va quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosatini jadallashtirish maqsadida O'rta Osiyo byurosi mahalliy partiya tashkilotlariga yuborgan maktubida qishloq kambag'allari va batraklar faolligidan keng foydalanishni hamda ularni mazkur jarayonga faol jalb etishni talab qildi.

Shuningdek, ayollarni ham ushbu siyosiy kampaniyaga keng jalb etish belgilandi. Qarorga muvofiq, qishloq sovetlari, partiya yacheykalari va kolxozlar tarkibida xotin-qizlar ulushini muntazam oshirib borish vazifasi qo'yildi. Jamoalashtirish va quloqlarni tugatish jarayonida komsomol tashkilotlarining o'rni va roli ham alohida belgilab berildi.

Jamoalashtirishning jadallashuvi natijasida 1930-yil mart oyiga kelib respublika bo'yicha dehqon xo'jaliklarining 47 foizi jamoalashtirilgan bo'lsa, 1929-yil 10-dekabr holatiga ko'ra bu ko'rsatkich atigi 34 foizni tashkil etgan edi [1, b. 57].

Shu bilan birga, ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish siyosati natijasida ayrim hududlarda xususiy xo'jaliklardan to'g'ridan-to'g'ri jamoa xo'jaligining eng yuqori shakli hisoblangan kommunalarga o'tish holatlari kuzatildi. Kommunal tashkil etilgan joylarda turar joylar, mayda chorva mollari, parrandalar va boshqa shaxsiy mulklar ham jamoalashtirilishi ko'zda tutilgan edi. Qishloq xo'jaligi artellarini tashkil etish jarayonida ham ko'plab joylarda qoramollar, qo'y-echkilar va hatto parrandalar ham jamoa mulkiga aylantirildi.

Natijada jamoalashtirish siyosati dehqonlarga nisbatan zo'ravonlik usullari orqali amalga oshirildi. Uning jadallashuvi quloqlarni ta'qib qilishga, o'rta hol dehqonlarga nisbatan ishonchsizlikning kuchayishiga hamda qishloq aholisining turli qatlamlari huquqlarining buzilishiga olib keldi. Bu esa qishloqlarda siyosiy vaziyatning keskinlashishiga sabab bo'ldi. Boy xo'jaliklarning mol-mulkini musodara qilish va "boy quloqlar" oilalarini boshqa hududlarga surgun qilish ommaviy qonunbuzarliklar asosida amalga oshirildi.

Sovet mustamlakachilik siyosati doirasida olib borilgan kollektivlashtirish va quloqlashtirish siyosati mustaqillik davrigacha sovet hokimiyatining eng katta yutuqlaridan biri sifatida talqin etib kelindi. Aslida esa sovet davri tarixining uzoq vaqt davomida yetarlicha o'rganilmagan mavzularidan biri aynan quloqlar taqdiri bilan bog'liq bo'lib, ushbu siyosat natijasida qatag'on qilingan va surgun qilingan minglab dehqon oilalari og'ir fojiga duch kelgan. Ular "qishloq burjuaziyasi", "kontrrevolyutsionerlar", "xalq dushmanlari", "sotsializm dushmanlari" va "kolxoz dushmanlari" kabi tamg'alar bilan ayblangan.

Sovet hokimiyati ko'rsatmalarini amalga oshirish maqsadida O'zbekistonda 1925-yil 28–29-iyul kunlari bo'lib o'tgan Plenumda "Milliy masalaga oid qarorlarni amalga oshirish to'g'risida" qaror qabul qilindi. Mazkur qaror mahalliy mehnatkashlar vakillaridan xo'jalik kadrlarini tayyorlash ishlarini kuchaytirishni nazarda tutgan.

Biroq qishloq aholisi ushbu siyosatga turli yo'llar bilan qarshilik ko'rsatdi. Ayrim dehqonlar xo'jaliklarini sun'iy ravishda bo'lib yuborish, yerlari va mehnat qurollarini sotish orqali islohotni barbad qilishga harakat qildilar.

Viloyat Yer komissiyasi barcha tuman, uyezd va qishloq yer komissiyalariga yer islohotini amalga oshirishda faol ko'maklashish, dastlabki ro'yxatga olish vaqtida o'z xo'jaligi haqida noto'g'ri ma'lumot bergan yoki jonli va jonsiz inventarini yashirgan shaxslarni aniqlash choralarini ko'rishni topshirdi. Shu bilan birga, barcha volostlarda mazkur ishlarni bir xil tartibda tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Jinoyat kodeksining 80-moddasiga tegishli qo'shimchalar kiritdi. Unga ko'ra, yer maydonlarini yashirish, inventar hajmi haqida yolg'on ma'lumot berish, shuningdek, yer komissiyalari hisobiga olingan mol-mulkni talon-toraj qilish yoki o'g'irlash holatlari uchun mol-mulkni musodara qilgan holda uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilandi.

Respublikada iqtisodiy siyosat asosida xalq xo'jaligini qayta tiklashda olib borilgan siyosatning ikki yillik natijalari yakunlandi va sovet hokimiyatining milliy masalada kollektivlashtirish bo'yicha ishlarni har tomonlama olib borishi, agrar siyosatini keng amalga oshirishi hamda navbatdagi vazifa sifatida yer-suv masalasini hal etish va buyuk davlatchilik siyosatini amalga tatbiq etish zarurligi ta'kidlandi. Qonunni buzishda aybdor bo'lgan bir qancha shaxslar sudga berildi. Yer-mulkni yashirishga qarshi kurash nihoyatda keskin tus oldi.

Qoraqalpog'iston hukumati Qozog'iston Kraykomidan yer-suv islohotlarini 1930-yil oxiridan bahorgi ekish kampaniyasiga qoldirishni so'radi. 1928-yil 24-noyabrda Butunittifoq Kommunistik (bolsheviklar) partiyasining Qoraqalpog' byurosi tomonidan **«Yer va suv islohoti to'g'risida»** rezolyutsiya qabul qilindi. Unda keng batrak-kambag'al qatlamining siyosiy jihatdan yetarli darajada tayyorlanganligi ta'kidlanib, batrak-kambag'al qatlam va o'rta dehqonlar blokini mustahkamlash hamda qishloq va ovullardagi yer-suv munosabatlarini ijtimoiy-sinfy o'zgarishlar asosida qayta tashkil etish zarurligi qayd etildi.

Biroq 1928-yil 20-noyabrda KPSS (b) tuman qo'mitalari kotiblari va partiya ijroiya qo'mitalari raislari ishtirokidagi yig'ilishda P. Varlamov **«Yer va suv islohotlari»** mavzusida ma'ruza qilib, islohotlarni darhol amalga oshirish imkoniyati yo'qligini ta'kidladi. Uning fikricha, avvalo partiya tashkilotlarini tozalash, **«Qo'shchi»** uyushmasini qayta tashkil etish, Sovetlarni qayta saylash, rentabellik asosida soliqqa tortishning yangi tamoyillarini joriy etish va ekish kampaniyasini o'tkazish zarur edi.

1928-yil bahoridan 1929-yil kuzigacha davom etgan yer-suv islohotlari va qishloqni sovetlashtirish siyosatining asosiy yo'nalishi Qoraqalpog'iston qishloq va ovullaridagi **«yarim feodal-kapitalistik elementlar»**ga qarshi kurash bo'ldi. Chunki sovet rahbariyati qishloqdagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar aynan shu qatlam bilan bog'liq, deb hisoblagan.

Mazkur islohotga ko'ra, xo'jaliklarni tabaqalashtirishda ilgari sug'oriladigan yer maydoni asos qilib olingan bo'lsa, keyinchalik asosiy mezon sifatida xo'jalikning rentabellik darajasi belgilandi. Natijada yillik daromadi 100 rubldan kam bo'lgan xo'jaliklar tabiiy xizmat majburiyatidan ozod qilindi [2, b. 89].

1928–1929-yillarda avtonom viloyatda sug'orish tizimini tiklash uchun atigi 841 rubl ajratilgan bo'lsa, 1925–1927-yillarda ushbu maqsad uchun 302 603 rubl mablag' yo'naltirilgan edi. Sug'orish ishlari, jumladan, ariqlarni tozalash, to'g'onlar qurish va ta'mirlash, yangi kanallar qazish kabi barcha ishlar dehqonlar tomonidan tabiiy xizmat tartibida bajarilgan. 1920-yillarning oxirlarida boy xo'jaliklar va savdogarlar hisobidan faqat sug'orish ishlariga 10–15 ming kishi jalb etilgan. Sug'orish ishlarini tashkil etishning bunday tartibi kollektivlashtirish davrida ham, besh yillik rejalar amalga oshirilgan yillarda ham 1950-yillargacha davom etdi [3, b. 46].

Umuman olganda, 1927–1928-yillardagi partiya ko'rsatmalari o'z maqsadiga erishdi. To'liq kollektivlashtirish siyosati natijasida Qoraqalpog'iston dehqonlari keskin tabaqalashtirildi. Mazkur kurashning yana bir muhim yo'nalishi sovet va partiya tashkilotlarini **«tozalash»** tadbirlari bo'ldi. S. Nurjanovning qayd etishicha, 1927–1932-yillarda boshqaruv apparatini tozalash ikki bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan: 1927–1928-yillar va 1929–1932-yillar. Ushbu tadbirlarning asosiy maqsadi Qoraqalpog'istondagi barcha tashkilotlarda mavjud bo'lgan tashkiliy kamchiliklarni bartaraf etish, boshqaruv tizimini tartibga solish va uning faoliyatini yanada uyg'unlashtirishdan iborat edi.

Muhokama

Sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan mamlakatni isloh qilish jarayoni kutilgan natijalarni bermagan bo'lsa-da, totalitar tuzum siyosati tobora kuchayib bordi. Dastlab "harbiy kommunizm" doktrinasi asosida olib borilgan siyosat keyinchalik ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv usuli bilan almashtirildi. Uning eng yaqqol ko'rinishlari qishloq xo'jaligida namoyon bo'ldi. Kollektivlashtirish bosqichi mamlakat qishloq xo'jaligini tubdan qayta qurish bilan birga, qishloq aholisining ijtimoiy hayoti va davlat bilan munosabatlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

1925-yilda Qoraqalpog'iston sharoitida yer va suv islohotlarini amalga oshirishga qaratilgan dastlabki urinishlar yangi hokimiyat kutgan natijalarni bermadi. Yer islohoti orqali yirik yer egalari va tadbirkorlar hukumat uchun asosiy siyosiy raqib sifatida talqin qilinib, qishloq aholisini boshqarishning yangi mexanizmlari shakllantirildi. Ommaviy axborot vositalari esa jamiyatdagi mafkuraviy qarama-qarshiliklarni yanada kuchaytirishga xizmat qildi.

1927-yil kuzida P.I. Varlamov tashabbusi bilan Abu Qudaboyev viloyat partiya tashkilotining birinchi kotibi etib tayinlandi. Varlamov Qozog'iston Kraykomiga yo'llagan xatida asosiy kurash kimlarga qarshi qaratilishi lozimligini ochiq bayon etib, ruhoniylar, boylar va eshonlarning yer hamda suvdan foydalanishdagi ustun mavqeini tugatish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, yer-suv islohotlari aynan shu maqsadga xizmat qilishi kerak edi.

1920-yillarning oxirlarida Qoraqalpog'iston davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalari oldiga bir necha muhim vazifalar qo'yildi. Birinchidan, qishloq va ovullarda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni nazorat qilish hamda partiyaning siyosiy ta'sirini kuchaytirish zarur deb topildi. Ikkinchidan, iqtisodiy jihatdan kuchli qatlamlarning jamiyatdagi ta'sirini cheklash va ularning mafkuraviy mavqeini susaytirish ko'zda tutildi. Uchinchidan, sanoatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy resurslarni qishloq xo'jaligi hisobidan safarbar etish hamda davlat foydasiga daromadlarni oshirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi.

A. Jumashv va S. Nurjanovlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog' jamiyatining an'anaviy tuzilishida

beklar, ruhoniylar va savdogarlar yetakchi mavqega ega bo'lgan. Ular qishloq hayotining asosiy tashkilotchilari bo'lib, dehqonlarni qishloq xo'jaligi asbob-uskunalari, ishchi chorva mollari va urug'lik bilan ta'minlagan hamda qabila munosabatlarini tartibga solishda muhim rol o'ynagan. Diniy muassasalarga tegishli vaqf mulklariga egalik qilgan ulamolar ham jamiyatda alohida mavqega ega bo'lgan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'istonda kollektivlashtirish siyosati keng ko'lamli siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy bosqichlari yer-suv islohotlari, yer tuzish ishlari hamda dehqon xo'jaliklarini jamoa xo'jaliklariga birlashtirish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda kechgan.

Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 1927-yilda yerdan foydalanish me'yorlarini belgilash maqsadida hududlarning tabiiy-iqtisodiy xususiyatlari, yer maydonlari, chorva soni hamda xo'jaliklarning iqtisodiy imkoniyatlari batafsil o'rganilgan. Mazkur tadbirlar keyinchalik kollektivlashtirish siyosatini amalga oshirish uchun muhim tashkiliy asos vazifasini bajargan [4, b. 12].

Arxiv materiallarida qayd etilishicha, 1928-yil 24-noyabrda Qoraqalpoq byurosi tomonidan qabul qilingan **"Yer va suv islohoti to'g'risida"**gi qaror hamda undan keyingi partiya ko'rsatmalari agrar munosabatlarni davlat manfaatlari asosida qayta shakllantirishga qaratilgan edi [5, b. 6]. Shu bilan birga, sug'orish ishlarini tashkil etish, tabiiy mehnat majburiyatini qo'llash hamda boy xo'jaliklar hisobidan minglab kishilarni irrigatsiya ishlariga jalb etish kabi tadbirlar iqtisodiy zaruratdan ko'ra ma'muriy-buyruqbozlik usullariga tayanganini ko'rsatadi. Xususan, 1928–1929-yillarda sug'orish ishlariga ajratilgan mablag'lar cheklangan bo'lishiga qaramay, irrigatsiya ishlari aholining majburiy mehnati hisobiga amalga oshirilganligi arxiv hujjatlarida o'z aksini topgan [6, b. 2].

Tadqiqot davomida tahlil qilingan arxiv hujjatlari va statistik ma'lumotlar ommaviy kollektivlashtirish jarayonida ma'muriy bosim, mulkni musodara qilish, **"quloq"** deb baholangan xo'jaliklarni tugatish hamda aholini surgun qilish amaliyoti keng qo'llanilganini tasdiqlaydi. Natijada an'anaviy xo'jalik yuritish tizimi izdan chiqqan, qishloq aholisining ijtimoiy tarkibi o'zgargan va mahalliy iqtisodiy munosabatlar markazlashgan boshqaruv tizimiga bo'ysundirilgan.

Shunday qilib, arxiv manbalari Qoraqalpog'istonda kollektivlashtirish siyosati faqat qishloq xo'jaligini qayta tashkil etish bilan cheklanmaganini, balki partiya-davlat nazoratini kuchaytirish, mahalliy ijtimoiy tuzilmalarni qayta shakllantirish hamda agrar sohada markazlashgan boshqaruv tizimini qaror toptirishning muhim vositasi bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot natijalari arxiv hujjatlarini ilmiy muomalaga kiritish orqali Qoraqalpog'istonda kollektivlashtirish siyosatining hududiy xususiyatlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yanada xolis baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бекимбетов А. Коллективизация сельского хозяйства Каракалпакии (1928–1937 гг.). – М., 1957.
2. Сарыбаев К. История орошения Каракалпакстана с конца XIX века до наших дней. – Нукус: Каракалпакстан, 1995.
3. Сарыбаев М. Хлопководство после образования Каракалпакской Автономной области // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 1998. – № 1. – С. 231.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (QR MDA). – F. R-105. – Op. 1. – D. 10.
5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (QR MDA). – F. R-30. – Op. 1. – D. 1.
6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (QR MDA). – F. R-30. – Op. 1. – D. 70.